

XULQI OG'ISHGANLIK VA TAJAVUKOR BOLALAR BILAN ISHLASH

*G'iyosiddinova Feruzabonu**Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali**Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti talabasi*

«Ko`rinishi ko`pincha o`lim instinkti ko`rinishlari bilan o`xshash tajovuzkorlik – bu xuddi boshqa instinktlar kabi bo`lib, bu ham ular kabi qayot va turni saqlab qolishga xizmat qiladi»Konrad Loryents

Anatatsiya: Mazkur maqolada xulqida og'ishish nima ekanligi va uning bolalardagi ko'rinishlari haqidagi malumotlar hamda tajavvuzkorlik va uning hayotimiz va bolalar hayotidagi o'rni haqida keltirib o'tilgan ma'lumot va tavsiyalar haqida.

Abstract: This article provides information about what is behavior disorder and its manifestations in children, as well as information and recommendations about aggression and its role in our lives and children's lives.

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, что такое расстройство поведения и его проявления у детей, а также информация и рекомендации об агрессии и ее роли в нашей жизни и жизни детей.

Kalit so'zlar: Og'ishgan xulq, deviant, hissiy buzilishlar, ijtimoiy moslashmaganlik, , tajovuzkorlik, tajavuskorlik turlari , o'smir yoshdagi tajavuslar oqibati.

Key words: deviant behavior, deviant, emotional disorders, social maladjustment, aggression, tyupes of aggression, consequences of aggression, consequences of aggression in adolescence.

Ключевые слова: девиантное поведение, девиантность эмоциональные расстройства, социальная дезадаптация, агрессия, виды агрессия, последствия агрессии в подростковом возрасте.

Kirish: Bizning ta'limotimiz predmeti shaxsning shunday axloqiy aspektiki, uni og'ishgan xulq sifatida tasniflash mumkin. Og'ishgan xulq psixik fenomenlar qatorida o`zining shaxsiy javonini egallaydi. U psixik kasalliklar, patologik holat, nevrozlar, psixosomatik parokandalik kabi ko`rinishlar qatorida mavjud. Ushbu fenomenlar tibbiy me'yorlar nuqtai nazaridan "sog'liq – kasallik oldi – kasallik" o`qida ko`rib chiqiladi. Shaxsning og'ishgan xulqini, bizning nazarimizda, psixopatologiya nuqtai nazaridan ko`rib chiqish ma'nosizdir. Og'ishgan xulq "ijtimoiylashuv – moslashmaganlik – yakkalanish" o`qida shaxsning ijtimoiy-psixologik maqomini aks ettiradi

Asosiy qism: Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko`pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida

biz o`zaro bir-birining o`rnini to`ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo`llaymiz – “og`ishgan”, “deviant”, bunda birinchi atama aniq va o`rganilgan bo`lgani sababli afzal ko`riladi.

Ko`rib chiqilgan tasniflarga axloqiy deviatsiyaga pedagogik yondoshuvni qo`shimcha qilish mumkin. Bizning fikrimizcha, pedagogik tasniflar kamroq diffeentsiyalangan va ko`pincha boshqa fanlardan o`zlashtirilgan. Ko`pincha “og`ishgan xulq” tushunchasini “moslashmaganlik” tushunchasi bilan tenglashtiriladi. O`quvchini tarbiyalash va o`qitishning asosiy pedagogik vazifalari olamida maktab o`quvchisining og`ishgan xulqi maktabga moslashmaganlik kabi ijtimoiy moslashmaganlik xarakteriga ham ega.

Maktabga moslashmaganlik tuzilmasiga o`zlashtirmaslik, tengdoshlari bilan o`zaro munosabatning buzilishi, hissiy buzilishlar kabi uning ko`rinishlari qatorida axloqiy og`ish ham kiradi.

Ijtimoiy moslashmaganlikning maktab yoshida anchagina mashtabli belgilari bo`lib quyidagilar chiqishi mumkin: psixofaol moddalarni muntazam iste`mol qilish (uchuvchi eritmalar, ichkilik, giyohvand moddalar), jinsiy deviatsiyalar, foxishabozlik, daydilik, jinoyat sodir etish. Oxirgi vaqtlarda maktab o`quvchilarining og`ishgan xulqida nisbatan kompyuter o`yinlari yoki diniy sektalarga qaram bo`lib qolish bilan bog`liq bo`lgan yangi shakl kuzatilmoqda.

Ko`ping xulq-atvorning adaptiv variantlari - muammoli tahlil, o`z qadrini bilish ko`rsatmasi, o`zini qo`lga olib bilishni saqlash kabi kognitiv elementlarni qamrab olgan. Xulq-atvorning keltirilgan shakllari paydo bo`lgan qiyinchiliklarni va ularning yechim yo`llarini tahlil qilishga, o`zini baholashda o`shish va o`zini boshqarish, shaxs sifatida o`z qadrini chuqurroq anglashga, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishda o`z zahiralariга ishonch mavjudligiga qaratilgan. Samarali emotsional strategiyalar orasidan - qarshi chiqish va optimizm qiyinchiliklarga nisbatan faol, kuchli g`azab va qarshi chiqish emotsional holatlari va turli eng qiyin vaziyatlardan ham chiqib ketish yo`li mavjudligiga ishonch kabi strategiyalarni aytib otish mumkin. Muvaffaqiyatli xulq-atvorning strategiyalari - hamkorlik, murojaat etish, altruizm. Shaxs xulq-atvorining bunday shakllarida u kattaroq (tajribali) insonlar bilan hamkorlikka kirishadi, yaqin ijtimoiy atrofdan qo`llab-quvvatlashni qidiradi yoki qiyinchiliklardan o`tish uchun yaqinlariga uni tavsiya etadi.

Pedagoglar bilan hamkorlik tajribasi maktabga moslashmaganlik bilan uyg`unlashuvchi birmuncha keng tarqalgan quyidagi axloqiy og`ishlar haqida gapirishga imkon byeradi. Bu intizom buzilishi, sababsiz maktab kelmaslik, giperfaol axloq, tajovuzkor axloq, oppozitsion axloq, chekish, bezorilik, o`g`rilik, yolg`on.

Juda yoshlikdan va maktab yoshidan og`ishgan xulq ko`rinishlari haqidagi masala yanada chalkash. Umuman shaxsning “mustaqil bo`lmagan” bu bosqichida deviant axloq haqida gapirish mumkinmikan. Pedagoglar va ota-onalar ko`pincha kichik bolalarda zararli odatlar (barmoqini so`rish, tirnog`ini chaynash), ovqat yeyishdan bosh tortish,

quloq solmaslik, tajovuzkor axloq, masturbatsiya, giperfaol axloq kabi axloqning shunday salbiy ko`rinishlari bilan to`qnashadilar.

Masalan, tajovuzkorlikni shovqin, issiq, torlik, ekologik muammolar, meteosharoit kabi tashqi sharoitlar to`la potentsiyalashi mumkin. Biroq ko`pchilik ushbu masala tadqiqotchilarining fikriga ko`ra, shaxs tajovuzkor axloqining shakllanishida hal qiluvchi rolning uning bevosita ijtimoiy muhiti o`ynaydi.

Tajovuzkor axloq xarakteri insonning yosh xususiyatlari bilan aniqlanadi. Har bir yosh bosqichi rivojlanishning maxsus vaziyatiga ega va shaxsga ma'lum bir talablarni ilgari suradi.

Go`daklar bolalar bog`chasining talablariga moslasha turib, haqoratlashi, chimchilashi, tuflashlari, urushishlari, tishlashlari va hatto yeb bo`lmaydigan narsani yutishlari ham mumkin. Shu bilan birga, bu harakatlar "tekshiruvsiz" sodir etiladi – impulsiv, ongsiz va ochiq.

Kichik maktab yoshida tajovuz ko`pincha hiyla zaif ("tanlangan qurbon") o`quvchilarga nisbatan masxaralash, bosim o`tkazish, taqqirlash, mushtlashish shaklida namoyon bo`ladi. O`quvchilarning bir biriga tajovuzkor axloqni namoyish qilishi qator hollarda jiddiy muammo bo`lib qoladi. O`qituvchilar va ota-onalarning bunday axloqqa keskin salbiy reaksiyasi ko`pincha bolalarning tajovuzkorligini nafaqat kamaytirmaydi, balki aksincha uni kuchaytiradi, chunki kuchning bevosita isboti va keyingisining mustaqilligi bo`lib xizmat qilad.

O`smir yoshida tajovuzkor axloqning maxsus xususiyatlari katta obro`sining qulashi fonida tengdoshlari guruhiga bog`liqligi hisoblanadi. Ushbu yoshda tajovuzkor bo`lish ko`pincha "sandiraqlab yurib, kuchli bo`lish"ni bildiradi. Har qanday o`smir guruhi sardor tomonidan qo`llab-quvvatlanadigan o`z rituellari va miqlariga ega. Masalan, guruhga a'zolik (yoki yangilarni sinash) rituellari keng tarqalgan. Guruhlarning ko`zni qamashtiruvchi "uniforma"si (umuman olganda o`smir fasonlari kabi) ham ritual xarakterini oladi. Rituallar guruhga mansublik tuyqusini kuchaytiradi va o`smirga xavfsizlik hissini beradi, miqlar esa uning hayotiy faoliyatini g`oyaviy asosi bo`ladi. Ayni damda alohida hollarda tajovuzkor axloqning tashabbuskorlari tajovuz yordamida o`z-o`zini tasdiqlashga urinuvchi va turli sabablar kuchida moslashmagan alohida o`smir-avtsaydyerlar bo`lishi mumkin.

Shunday qilib, tajovuzkor axloq bolalar va o`smir yoshidagilar uchun yetarlicha odatiy ko`rinishdir. Bundan tashqari, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida tajovuzkor axloq qator muhim vazifalarni bajaradi. Me'yorda u qo`rquvdan ozod qiladi, o`z manfaatlarini himoya qilishga yordamlashadi, tashqi xavfdan himoyalaydi, moslashishga ko`maklashadi. Shu munosabat bilan tajovuzning ikki turi haqida gapirish mumkin: zararsiz-moslashgan va dyestruktivmoslashmagan.

Umuman olganda, bola va o`smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko`rinishigina emas, uning natijasi va atrofdagilarning noto`g`ri reaksiyasi xavflidir.

qachonki zo`ravonlik e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa afzalliklar bergan holatda bolalar va o'smirlarda katta etimol bilan kuch madaniyatiga asoslangan ijtimoiy ishlaydigan va katta odamlar (masalan, jinoiy guruhlar) asosida tuzilgan axloq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p hollarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib keladi

Yosh, gender va individual omillarning butun muqimligiga qaramay, tajovuzkor axloqning shakllanishida, ko'plab tadqiqotchilar fikriga ko'ra, shaxs rivojlanishidagi ijtimoiy sharoitlar yetakchi ahamiyat kasb etadi

Shunday qilib, ichki va tashqi omillarning noxush ta'sirida tajovuzkor mayl haqiqatan tajovuzkorlik va jamoatchilik uchun xavfli shaklgacha bo'lgan turg'un barbod qiluvchi axloq shakliga ega bo'ladi. Biroq tajovuz salbiy oqibatlariga olib kelishi shart emas. Masalan, u nafaqat yangi va yangi ob'ektlarga aralashib ketishi, balki faoliyatning turli shakllariga – biznyes, o'qish, sport, sardorlik va h.k. larga qo'shilishi (sublimatsiya qilmoq) mumkin.

Albatta, me'yorda tajovuz muhofaza xarakteriga ega va yashashga xizmat qiladi. U shuningdek, individning faolligi manbai, uning ijodiy potentsiali va yutuqlarga intilishi bo'lib yuzaga chiqadi. Shaxs tajovuzning turli ko'rinishlarini taniy olishi, tajovuzni ijtimoiy maqbul shakllarda ifodalashi va nihoyat, boshqalar yoki o'zining ustidan zo`ravonlik qilishdan qochishi kerak va mumkin. Shaxsiy tajovuz taqdiri – har bir katta insonning shaxsiy tanlagan ishi o'z tajovuziga egalik qilish esa – umuman murakkab psixologik vazifalardan biridir.

Xulosa: Xulqi og'ishish jamiyat ishlab chiqan me'yorlardan chetga chiqib ketish demakdir. Xulqi og'ishganlikka tajavuskorlik ham kiradi. Tajavuskorlik turli yosh va jins vakillarida turli hil bo'ladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ko'proq o'g'il bolalar bolalar o'rtasida o'tkazilgan tajribalar asosida yozilgan bo'lib statistika ma'lumotlari olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
2. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi buyicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatar»
3. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010.
5. Kornilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo'llanma. - T., 2008
6. Burxonova M. Kelajak boshlanginchi sinf o'qituvchilarini tayyorlanishda tibbiy madaniyat va Sog'lom turmush tarzi bo'yicha kompetentsiyani rivojlantirish imkoniyatlari //Yevrosiyo ijtimoiy fanlar, falsafa va madaniyat jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 2 2-qism. – S. 86-90.
7. Burxonova M. o'smirlarda sog'lom turmush tarzi kompetentsiyalarini va tibbiy saavodni rivojlantirish //O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 2 2-qism. – S. 23-26.